



PEDAGOGIKA FANINING YARATILISH TARIXI VA BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIK XUSUSIYATLARI

Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi

Fargʻona davlat universiteti katta oʻqituvchisi, p.f. b. d. (PhD)

Muhammadjonova Oʻgiloy Bahodirjon qizi

FarDU 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, pedagogika fani haqida maʼlumot va pedagogika faniga katta hissa qoʻshgan olimlar va ushbu fanning boshqa fanlar bilan aloqasi va yaralitish tarixi haqida maʼlumotlar keltirib oʻtilgan va pedagogika fanining maaqsad va vazifalari haqida ham maʼlumotlar berilib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: mahorat, barkamol, prinsip, nazariya, qonuniyat, amaliyot, gʻoya

Аннотация: В данной статье даны сведения о науке педагогика и ученых, внесших большой вклад в науку педагогика, о взаимосвязи этой науки с другими дисциплинами и истории травмы, а также даны сведения о целях и решались задачи науки педагогики.

Ключевые слова: умение, навык, принцип, теория, закон, практика, идея.

Abstract: In this article, information about the science of pedagogy and scientists who made a great contribution to the science of pedagogy and the relationship of this science with other disciplines and the history of injury are given, and information is also given about the goals and tasks of the science of pedagogy. passed.

Key words: skill, skill, principle, theory, law, practice, idea



KIRISH. Shaxsni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash nihoiyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o‘qitish shakllarida foydalaniladigan o‘qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo‘llashda, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo‘lib, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o‘qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur. Chunki har bir bola, har bir o‘quvchi jamiyatning a‘zosi hisoblanadi va jamiyatning taraqqiy etishi yoki tanazzulga uchrashi aynan shu shaxslarga bog‘liqdir. “Pedagogika” fani tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatlardagi barcha fanlar bilan bog‘liqdir. “Falsafa” fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya’ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir. Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta’lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan gnoseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA. Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir. Etika falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog‘liqdir. Ularni hal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi. Estetika



(nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni his qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llarini belgilab beradi. Pedagogik fanlar tizimi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir: Umumiy pedagogika - pedagogikaning kontseptual masalalari va amaliy jihatlarni tadqiq etadi. Pedagogika nazariyasi - pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadi.

Pedagogika tarixi - pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'lim turlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xoj jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi. Pedagogik mahorat - o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funktsiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me'yorlovchi). Birinchisi ob'yektni nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi - tadqiqotchi uchun aniq mo'ljal olishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning



mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi - nazariy va me'yoriy. Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogikaning nazariy asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lga kiritishga doir faoliyat tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati - bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi - metodologik tadqiqot va metodologik ta'minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo'nalishlari, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi - metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos «bola» va «etaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash xamda unga ta'lim berishning moxiiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod xamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muxim jixati –uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muxim tarkibiy qismlari xisoblanadi.

Ta'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'limdasturlarini amalga oshirishiga ko'ra maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xamda maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi. Tarbiya nazariyasi –pedagogikaning muxim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Tarbiya muayyan, aniq maqsad xamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni hartomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-



atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, xuquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan ximoyalaniş yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jixatdan asoslandi. Bu o'rinda pedagogika fani rivojiga o'zining munosib xissasini qo'shgan mutafakkirlar:

G'arbda -YA.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbart, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, SHarqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.SHakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, X.X.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Bexbudiylar haxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashborasidagi qarashlarni yanda boyitdilar xamda ta'lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tadbiq etish, o'qitishni yangi tizim (izchil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g'oyalarni ilgari surdilar. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonparvar va xuquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e'tirof etilib, «ta'lim tizimini tubdan isloxqilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish»¹ davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Respublikada ta'lim soxasida amalga oshirilayotgan isloxotlarning asosiy mazmun xamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kabi me'yoriy xujjatlarda belgilab berilgan. Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy xarakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni xal etish yo'llarini o'rganadi. Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani



bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga aloxida xissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat urilishi, uning xayotida etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar moxiyatini muxim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar xamda xuquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini xal etadi.

Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning moxiyatini o'rganish.
2. Shaxsni xar tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan xolda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Ta'lim muassasalari xamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar xamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya moxiyatini ilmiy jixatdan asoslash ma'lum pedagogik xodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik xodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy moxiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi.

Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa –shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash xamda ta'limotlarning falsafiy jixatlari kabi masalalarni taxlil etishga imkon beradi.



2. Iqtisod –ta’lim muassasalarining faoliyatini yo’lga qo’yish, o’quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlash kabi masalalarning iqtisodiy jixatlarini anglashga xizmat qiladi.
3. Sotsiologiya –ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo’lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o’zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.
4. Etika-shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muxim o’rin tutuvchi nazariy g’oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda aloxida o’rin tutadi.
5. Estetika –shaxs tomonidan go’zallikning xis etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muxim yo’nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
6. Fiziologiya-o’quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang’ich asoslarni beradi.
7. Gigiena –o’quvchilarning salomatligini muxofazalash, ularning jinsiy jixatdan to’g’ri shakllantirishda nazariy va amaliy g’oyalari bilan yordam beradi.
8. Psixologiya –shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruxiy-intellektual, xissiy-irodaviy sifatlarini tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.
9. Tarix –pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g’oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo’naltiriladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkunku, pedagogika fani juda ko’p fanlar bilan o’zaro aloqador jarayonlarini yaratgan. Pedagogika faning bir necha fanlar bilan o’zaro naloqadorlik xususiyatlari va vazifalari ham border. Ushbu fanning o’rganish esa har bir talaba uchun kelajakda yetuk bir kadr bo’lib yetishishiga katta hizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. A .Mavlonova, N .H .Rahmonqulova, K.O .Matnazarva , M.K .Shirinov S .Hafizov. "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanma 2018 y.
2. N.Ataeva, F.Rasulova, S.Hasanov. "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanma 2011 y.
3. Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna, Askarov Abror Davlatmirzayevich "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanma 2019 y
4. Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. –T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. –B. 252-257;
5. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008. –B.153-155;
6. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. –T.: Fan, 1995;
7. Hasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002;
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. –Toshkent, O'qituvchi, 1992.
9. Pedagogika. Munavvarov A.g'.ning umumiy tahriri ostida. –Toshkent, O'qituvchi, 1996.
- 10.Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Makhamadjonov, J. Z. O. (2021). Pedagogical bases of formation of professional competence. Science and Education, 2(11), 985-991.
11. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogical competence: theoretical and practical analysis. Science and Education, 2(9), 309-314.
12. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PROBLEM WAYS OF DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SKILLS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 535-542.
13. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).